

## **DORI MODDALARINING NOJO'YA VA ZAHARLI TA'SIRI. TERATOGENLIK HAQIDA TUSHUNCHA.**

***Dolimov X.X.***

*O'zResFAA mustaqil tadqiqotchisi.*

***Dolimova U.A., Mo'sajonova G.D.,***

***Ma'murova S.F.***

*Farg'ona Davlat Universiteti talabalari*

Klinikada qo'llaniladigan dori moddalari asosiy effektdan tashqari, nojo'ya effekt ham ko'rsatishi mumkin. Dori moddalarining nojo'ya ta'siri ayrim hollarda ijobiy, ko'pincha esa salbiy bo'lishi mumkin. Dori moddalarning nojo'ya ta'siri allergik va noallergik tabiatga ega bo'lgan effektlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Dori allergiyasi negizini immune ta'sir mexanizmi tashkil etadi. Dori moddalarining allergik ta'siri ularning strukturasi (kimyoviy tuzilishiga) va organizmga yuboriladigan moddaning dozasiga bog'liq emas. Dori allergiyasi birinchi marta preparat qabul qilingan kundan bir necha kun o'tgach, shu preparatning organizmga takroran yuborilishiga javob tariqasida sodir bo'lishi mumkin. Organizmga yuborilgan dori moddasiga allergiya (allos-boshqa, ergon-ta'sir) odatdan tashqari yuzaga keladigan reaksiya: eshakem, zardob kasalligi, bronxial astma, apafilaktik shok va boshqalar uning uchun xarakterlidir. Allergik reaksiyalar allergiyaga qarshi vositalar bilan bartaraf qilinadi, ularga gistaminga qarshi preparatlar, glyukokortikoidlar va boshqalar kiradi. Tibbiyot hamshirasi anafilaktik shok, bronxial astma, xronik eshakem kasalliklarini boshidan kechirgan bemorlarda dori moddalarning nojo'ya ta'sir begilarining paydo bo'lishiga alohida e'tibor berishi, bemorda bu belgilar kuzatilgan taqdirda allergiyaga qarshi preparatlardan foydalanib, hakim kelguncha tez yordam ko'rsatishni bilishi zarur. Allergik asoratlar antibiotiklar, B guruppasidagi vitaminlar, novokain ishlatishda

ko'proq sodir bo'ladi. Shuning uchun dori allergiyasi bilan kasallangan bemorga bu preparatlarning tasodifan tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday bemorlar uchun shpritslar, ignalar va sterilizatorlarni alohida qilib qo'yish kerak. Dori allergiyasining oldini olishda asosiy tadbirlardan biri dori moddalarining buyurilishini nazorat qilishdan iborat. Tibbiyot hamshirasi bemorlarga dori preparatlarini tarqatishda va ularni bemor organizmiga yuborishda, shu bemorning kasallik tarixida bayon qilingan hakim ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishi kerak. Dori allergiyasining oldini olish tadbirlaridan yana biri atrof-muhitni ifloslanishdan muhofaza qilish hisoblanadi. Noallergik nojo'ya ta'sir har bir moddaning farmakologik xossalariga bog'liq va har bir modda uchun xos, ya'ni spetsifik bo'ladi. Dori preparatlari dozasi oshirib yuborilishi yoki ularning tarkibida zaharli aralashmalarning bo'lishi toksik ta'sirni vujudga keltiradi. Toksik reaksiyaning allergik ta'sirdan farqi shundaki, toksik reaksiya preparatning farmakologik xossalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Toksik ta'sir, maksimal terapevtik doza oshirilganda, organizmda yig'ilib qoladigan dori preparatlari uzoq muddat ishlatilganda yoki jigar va buyraklar funksiyasi buzilganda organizmda dori moddalarining yuqori konsentratsiyasi vujudga kelganda rivojlanadi.

Salbiy ta'sir dori moddalarining mos kelmasligidan kelib chiqishi mumkin. Fizik-kimyoviy va kimyoviy hodisalar keltirib chiqaradigan mos kelmaslik va farmakologik jihatdan mos kelmaslik tafovut qilinadi. Birinchi holda o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishadigan yoki bir-biri bilan aralashtirilganda fizik-kimyoviy xossalari o'zgaradigan dori moddalarini birga qo'shib ishlatib bo'lmaydi. Ikkinchi holda farmakologik mos kelmaslikda ikkiga yoki bundan ko'proq dori moddalari bir vaqtda ishlatilganda nojo'ya ta'sir vujudga keladi.

Ba'zi bir dori moddalar teratogen ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi bir dori moddalarni qabul qilish ona qornida bolaning rivojlanishini izdan chiqaradi, tug'ma majruhliliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu dori moddalarining teratogen ta'siri deyiladi. Odamning embrional rivojlanishi davrida shunday qiyin damlar borki,

bunday damlarda tashqi muhit omillari, jumladan dori moddalarining ta'siri ostida homilaning normal rivojlanishi ishdan chiqadi yoki homila halokatga uchraydi.

Psixotrop vositalar guruppasiga kiradigan fenotiazin hosilalari teratogen ta'sir ko'rsatadi. Ular fokomeliyani keltirib chiqarib, oyoq-qo'llarning kuraksimon shakllanishiga sabab bo'ladi. Vitamin A (retinol) ning katta dozalari homilaning tanglayini yemiradi. Vitamin B (klasstiferol) kortikosteroid gormonlar hosil bo'lishini susaytiradi, embrionning o'sishini sekinlashtiradi, uning oyoq-qo'l, bosh, umurtqaning bo'yin qismi suyaklarining rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Dori moddalarining organizmga salbiy ta'sirini o'rganish, analiz qilish va oldini olish choralarini izlab topish uchun dori moddalarning nojo'ya ta'sirini o'rganadigan Butun ittifoq markazi tashkil etilgan.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. „Farmakologiya bilan retseptura” K.X.Postnova
2. „Farmakologiya” S.S.Azizova
3. „Лекарственные средства” М.Д.Машковский